

## **Onajon, bu galgi yurak so‘zimni...**

**Oq sutiga mehrin qo‘shib ichirgan,  
Gunoh qilsang, eng birinchi kechirgan,  
Onadir ul, onadir ul, onadir...**

Dunyoda uchta mo‘tabar so‘z bor: ona, Vatan, o‘qituvchi. Bir-biridan aziz, ulug‘ siymo bular. Ularni sevmagan, qadrlamagan kishi bo‘lmasa kerak. Hamma ularni tabarruk biladi, ular qarshisida ta‘zim qiladi. Vatan – behisob boyliklar, farovonlik makoni. Uning madhi she‘rlarimizda, dillarimizda. Ijodimizning butun ko‘rki ham ona-Vatan.

O‘qituvchi o‘quvchiga baxt beradi, nodir bilimlarini, zarur topilsa, hayotini ham baxshida etadi.

Ona. Mehri quyoshga teng ona. O‘z shafqati, mehri bilan bolaga qalb bergan, sevgi baxsh etgan ona! Uning inoyat qilgan yuragi va muhabbati, eng avvalo, onaning o‘ziga qaratilib, bola uni sevdi, ardoqladi...

Chaqaloqning birinchi “inga”sidayoq mehribonlik, mushfiqlik xislati pokiza siynasiga balqib kelganda: “Bolam” deb, bag‘riga bosdi va hayot ozig‘idan bahramand qildi. Shu ondayoq umid-orzu dengiziga sho‘ng‘idi. Onada dunyodagi jamiki ezguliklardan-da yuksak turuvchi zo‘r muhabbat tug‘ildi. Uning qalbida yomonliklarga qarshi cheksiz nafrat paydo bo‘ldi. Bola ham esini tanib, uning qutlug‘ bag‘riga intilganida: “Ona” degan so‘zni ilk marotaba tiliga chiqarib, muborak oftob nurida isindi, yayradi.

Tunlari bedor: shirin uyqusini buzib, bolasiga halovat beradigan yoqimli allasi bilan ona farzandiga ruhiy lazzat bulog‘ini ochadi. Bola she‘riyat va qo‘shiqqa umrbod maftun bo‘ladi. Bolasini: “Ko‘zimning nuri, dilimning sururi”, – deya alqaydi. Uni yer-u ko‘kka ishonmay, ko‘proq uxlab qolsa, xavotirlanadi, qattiqroq yig‘lasa, vahimaga tushadi, parvona bo‘ladi. Buni qay so‘z bilan tasvirlasa bo‘ladi?!

Agar menda ozgina bo‘lsa-da olijanoblik, axloqiy poklik, yaxshilik tuyg‘usi shakllangan bo‘lsa, bularning hammasi Onamdan. Ha, bola eng yaxshi

fazilatlarni onadan o'rganadi. Inson baxtidek ko'rkamlik, tabiatan ulug'lik, sog'lomlik, xushnudlik – hammasi Onadan.

Ona kishilik dahosi yaratgan ilmni ham, tajribalarni ham ishga soladi, bolani mehnatga o'rgatadi. Aqlini peshlab, bolaga mehnat qurolini ushlabdan to noz-u ne'matlar yaratishgacha, shirin so'zlab, o'zgarar hurmatini topishgacha yo'l-usullar bilan tanishtiradi. Toymasin, qoqilmasin deb, to'g'ri odimlashgacha saboq beradi. Ona – murabbiya. U kelajakka zo'r ishonch bilan qaraydi. Ona – po'lat iroda sohibi: bolasi uchun hamma qiyinchiliklarni yengadi. Uning madhi hamisha kuylarda, she'rlarda, g'azallarda:

- Sendan yuksak nima bor, yulduz?
- Onalar mehri.
- Sendan keskir nima bor, olmos?
- Onalar qahri.
- Po'lat, qaydan senda zo'r bardosh?
- Ona sabridan.
- Senmi, ko'klam, hayotbaxsh fasl?
- Yo'q, onalar izi.
- Senmi, xushta'm, shifobaxsh asal?
- Yo'q, onalar so'zi.
- Baxt bitguvchi senmi, hayot?
- Yo'q, yo'q, onalar.
- Yaratguvchi senmi, tabiat?
- Yo'q, yo'q, onalar! (S.V.)

Ona muhabbatini bizda “mehr” deydilar. “Mehr” so'zining qadim ma'nosi esa “quyosh” demakdir. Tabiat quyosh harorati bilan yashnaganidek, farzand ham ona mehri bilan gulgundir. Shuni ham unutmazlik kerakki, har bir gulning o'z isi bo'lganidek, ota-ona uchun ham har bir farzandning o'z o'rni bo'ladi. Bu o'rin bo'sh bo'lsa, hamma vaqt huvillab turishini ko'pchilik yaxshi biladi. Ota-onaga yoshligida, ya'ni bilaklarida kuch, belida quvvat borligida farzand qanchalik aziz, qanchalik zarur bo'lsa; keksayib, bilaklaridan kuch, belidan mador ketganda,

farzand ular uchun yana ham aziz, yana ham zarurdir. Bu zaruratning mohiyati esa turlichadir, shunday emasmi?...

O'qigan asarlarim ichida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi Ona obrazi, adabiyotshunos O.Sharafiddinov ta'biricha, yozuvchi tomonidan favqulodda bir san'atkorlik bilan yaratilgan, deb hisoblayman. Asarga baho berar ekan, O.Sharafiddinov aytadi: "Ona obrazini jozibador qilgan muhim jihatlardan biri shuki, u nasihat qilish, oddiy haqiqatlarni ta'kidlash, bo'lar-bo'lmasga tergash bilan farzandlariga tarbiya bermaydi, balki o'zi buyuk e'tiqodlarga amal qilib yashashi bilan, ibrati bilan ularning olam va odam haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Uning butun hayoti tevarak-atrofdagilarga saxiylik bilan mehr-muhabbat ulashish asosiga qurilgan". Asar mutolaasi davomida biz Onaning nihoyatda kamsuqum, sodda, ammo fikri teran, farzandlariga tom ma'noda fidoyi, atrofdagilarga behad mehribon, qalbi daryo, iymoni but, ruhi pok, ma'naviyati tubsiz, insoniy go'zalligi beqiyos inson ekanligiga amin bo'lamiz. Ha, farzand uchun hayot yo'llarida eng ishonchli suyanch tog'i – onadir. Har kim har kimga xiyonat qilishi, ko'ziga cho'p suqishi mumkin, ammo ona hech qachon farzandiga xiyonat qilmaydi, ehtimol shu bois yer yuzida hayot bardavomdir, demoqchi bo'ladi muallif o'z asari orqali. Menimcha, bu asar hech qachon o'z o'quvchisini yo'qotmaydigan bebaho asardir, farzandlar va onalar uchun muhim dasturilamaldir.

**H.Eshonqulov**